






**QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

A background image showing a person in a business suit holding a tablet, overlaid with various data visualization elements like bar charts and line graphs.A background image showing a hand holding a pen and writing in a notebook, with a pair of glasses on the desk.A background image of a large industrial factory with multiple smokestacks emitting thick black smoke into the sky.


**QASHQADARYO
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQARISHI**
*2022- YIL YANVAR - IYUL OYLARI
(DASTLABKI MA'LUMOT)*

Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-iyul oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 11 628,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 72,5 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 5,4 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan 2022- yilning yanvar - iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 983,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 71,3 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- iyul oylari	2022- yil yanvar- iyul oylari	Farqi +/-
Tabiiy qumlar, ming t.	59,6	17,2	- 42,4
Neft, ming t.	16,7	12,1	- 4,6




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- iyul oylari	2022- yil yanvar-iyul oylari	Farqi +/-
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	838,3	359,5	- 478,8
Gaz kondensati, ming t.	89,7	69,4	- 20,3

Yanvar- iyul oylari yirik korxonalar boʻyicha


Ishlab chiqaradigan sanoat



2022- yilning yanvar- iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8 436,2 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 121,3 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2021- yilning yanvar- iyul oylarida – 0,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 21,1 % (21,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 2,6 % (2,3 %) va quyi texnologiyalisi – 40,6 % (40,5 %) ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 14,6 % (2021- yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 118,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,1 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 23,3 %), to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 28,6 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 130,9 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 21,9 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,6 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,3 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 3,8 m.), mebel ishlab chiqarishning ulushi – 0,5 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 127,7 %), ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *


Tabiiy qumlar




Gaz kondensati




Tabiiy gaz



Neft



Propan, Butan




Chaqiq tosh




* Yanvar- iyul oylarida yirik korxonalar bo'yicha

Yumshoq bug'doy uni




Aroq




Uzum vinosi




Paxta tolasi



Paxta chigiti



Kalava ip




2022- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 82,7 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 96,1 %) ni, 33,5 ming tonna kalava ip (146,2 %) ni, 37,2 ming tonna paxta tolasi (69,2 %) ni hamda 1 253,0 ming litr aroq mahsulotlari (106,3 %) ni, tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- iyul oylari	2022- yil yanvar- iyul oylari	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	86,0	82,7	- 3,3
Paxta tolasi, ming t.	53,4	37,2	- 16,2
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	1,6	3,3	1,7

Metallurgiya sanoati

2021-yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 3,04 m. ni tashkil etgan, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,1 %, fizik hajm indeksi esa, 23,3 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 12,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2021- yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 1,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 112,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,0 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 147,0 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 238,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 96,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 14,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 118,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 692,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 93,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 139,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 70,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2021- yil yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 129,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 28,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 130,9 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 328,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2021- yil yanvar-iyul oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 96,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 %, fizik hajm indeksi 106,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 281,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-iyul oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 21,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 112,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 21,9 % ni, fizik hajm indeksi 115,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 546,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Mebel mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yil yanvar-iyul oylarida mebel ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 105,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 127,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 54,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-iyul oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,09 % ni, fizik hajm indeksi esa 2,7 m. tashkil etgan,.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 3,8 m. ga oshib, ishlab chiqarish hajmi 38,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi.




Yog'och va po'kak buyumlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-iyul oylarida yog'och va po'kak buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,02 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 146,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 14,1 m. ga oshib va ishlab chiqarish hajmi 19,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish




2021- yil yanvar-iyul oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 182,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 105,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 42,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

2021- yil yanvar-iyul oylarida yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,02 % ni, fizik hajm indeksi esa 144,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 185,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 142,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 18,4 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar - iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 84,8 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar – iyul	2022- yil yanvar – iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	7 841,5	5 580,4	-2 261,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 787,5	1 860,6	73,1

yanvar - iyul oylarida yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 66,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar - iyul	2022- yil yanvar - iyul	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	6 711,5	7 777,5	1 066,0
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	29 923,1	49 249,7	19 326,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 115,9 % ni hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha xizmatlar 98,7 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 443,2 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 108,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 21,0 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-iyul oylari

60,3 %

2022- yil
yanvar-iyul oylari

56,2 %

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-iyul oylari

39,7 %


2022- yil
yanvar-iyul oylari

43,8 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 2,5 % (2021- yil yanvar–iyul oylarida 2,2 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib 25,1 % ni va Koson tumani 8,9 % ni, Yakkabog' tumani 7,6 % ni Shahrisabz shahri 7,3 % ni, Kitob tumani 7,0 % ni hamda Chiroqchi tuman 6,9 % ni tashkil etdi. Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida tumanlarda o'sish sur'ati (108,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Kasbi tumanida (128,7 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 25,1 % ni shuningdek, Koson tumani 8,9 % ni, Yakkabog' tumani 7,6 % ni, Shahrisabz shahri 7,3 % ni va Kitob tumani 7,0 % ni tashkil etdi.



2 207,6 mlrd. so'm


2020-yil yanvar – iyul

2 110,1 mlrd. so'm

2021-yil yanvar – iyul

2 443,2 mlrd. so'm

2022-yil yanvar – iyul



Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020-yil

96,7 %

2021-yil

100,4 %

2022-yil

108,1 %

o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shaharga to'g'ri kelib 21,3 % ni, Kitob tumaniga 10,1 %, Koson tumaniga 9,3 %, shuningdek, Chiroqchi tumani 8,5 % ni tashkil etdi.

898,2 mlrd. so'm


2020- yil yanvar – iyul

837,2 mlrd. so'm


2021- yil yanvar – iyul

1 069,2 mlrd. so'm

2022- yil yanvar - iyul



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi




o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 29,4 % ni, shuningdek, Koson tumani 9,0 % ni, Shahrisabz shaharga esa 7,7 % ni tashkil etdi.





o'sish sur'ati
mlrd. so'm

1 264,0 mlrd. so'm
2020- yil yanvar – iyul

1 225,8 mlrd. so'm
2021- yil yanvar – iyul

1 312,0 mlrd. so'm
2022- yil yanvar – iyul



Qashqadaryo viloyati tuman, shahar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi G'uzor tumaniga to'g'ri kelib, 17,6 % ni, shuningdek, Nishon tuman 17,3 % ni, Qarshi shahar esa 15,4 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyat

2020- yil

7 396,1 mlrd. so'm

2021- yil

10 259,9 mlrd. so'm

2022- yil

11 628,5 mlrd. so'm



2020- yil


96,7 %

2021- yil

122,0 %

2022- yil

105,6 %




0 500 1000 1500 2000 2500

FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon tumanida (12 555,5 ming so'm), G'uzor tumanida (9 779,0 ming so'm), Qarshi shahar (6 271,3 ming so'm), Kasbi tumanida (4 908,0 ming so'm), Dehqonobod tumanida (4 675,1 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1 278,6 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Qashqadaryo viloyati

2020- yil

2 247,6 ming so'm

2021- yil

3 062,2 ming so'm

2022- yil

3 396,5 ming so'm



2020- yil 94,8 %

2021- yil 119,8 %


2022- yil 103,2 %

o'sish sur'ati

ming so'm

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 840,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 24,4 % ni tashkil etdi.



Qashqadaryo viloyati

2020- yil

2 280,2 mlrd. soʻm

2021- yil

2 263,9 mlrd. soʻm

2022- yil

2 840,6 mlrd. soʻm



2020- yil

30,8 %

2021- yil

22,1 %



2022- yil

24,4 %

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 713,6 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi shahrida – 2 156,7 ming so'mni, Shahrisabz shahrida – 1 238,4 ming so'mni, Kasbi tumanida – 943,3 ming so'mni va Muborak tumanida – 764,7 ming so'mni tashkil etdi.


Qashqadaryo viloyati



o'sish sur'ati
ming. so'm

Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 5222 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 934 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,9 % i) Qarshi shahriga, 566 tasi (10,8 %) Kitob tumaniga, 455 tasi (8,7 %) Yakkabog' tumaniga, 363 tasi (7,0 %) Qarshi tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan

